

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnalı bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oly attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrdagi 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
KARIMOV E. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOV K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYeva T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)

Muharrir: Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60

Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'oz.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona,
2022.**

FIZIKA – TEXNIKA

J.Xudoyberdiyev, A.Reymov, R.Kurbaniyazov, SH.Namazov, O.Badalova, A.Seytnazarov	248
Qoraqalpog'istonning jelvakli fosforit uni asosidagi faolashgan superfosfat	
M.Ahmedov, Z.Teshaboyev	
"Hayot davomida o'qish" tamoyili asosida innovatsion xarakterga ega bo'lgan "mavzu ishlanmasi" tayyorlash.....	255
	KIMYO

S.Samatov, A.Ikramov, O.Ziyadullayev, S.Abduraxmanova	259
Benzaldegid va uning xosilalarini fenilatsetilen ishtirokida enantioselektiv alkinillash jarayoni.....	
I.Asqarov, G'.Madrahimov, M.Xojimatov	
³ O-ferrotsenil benzoy kislotasini ayrim hosilalarining biologik faolligini o'rganish	267
U.Mamatkulova, X.Isakov, I.Askarov	
Sarimsoqpiyoz va po'stining kimyoviy tarkibi, shifobaxshlik xususiyatlari.....	271
I.Askarov, Z.Nazirova	
Qizil lavlagi tarkibidagi ayrim kimyoviy birikmalar va ularning ahamiyati	275
I.Asqarov, B.Nizomov	
Yeryong'oq va yong'oq mevasining qiyosiy kimyoviy tarkibi va shifobaxsh xususiyatlari	279
I.Mamatova, I.Askarov	
«Oltin vodiylar» oziq-ovqat qo'shilmasining gipergrlikemik xususiyatlari	283
I.Askarov, X.Isakov, SH.Turaxonov	
Monometilolmochevinagallat efirlarini olish	286

BIOLOGIYA, QISHLOQ XO'JALIGI

A.Xusanov D.Kapizova, G.Zokirova, N.Oxunova	
Farg'ona vodiysi sharoitida ochiq urug'li daraxt va butalarning so'rvuchi fitofaglari (lachnidae, diaspididae): faunasiga va ekologiyasi.....	290
M.Nazarov, M.Ma'murova, A.Xamidov M.Mirzaxalilov	
Baliqchilik xo'jaligi hovuzlarida fitoplankton tarkibi va o'simlikxo'r baliqlarni yetishtirishda ularning o'mni	295

ILMIY AXBOROT

Z.Xosilova	
Oshiqcha tana vazni va uning aholi guruhlari (18-59 yoshlilar) orasida uchrash holati	299
S.Mamadalieva, M.Omonova, B.Saydaliyev	
Mahalliy xomoshyodan adsorbentlarda parafinni chuqur tozalash uchun kombinirlangan texnologiya	302
A.Xolikulov	
Buxoro xonligining Rossiya bilan siyosiy aloqalari tarixidan.....	306
X.Jumaniyozov	
Markaziy Osiyorning tabiiy-geografik, ijtimoiy-iqtisodiy, logistik imkoniyatlarining geosiyosiy jarayonlarga ta'siri.....	312
A.Hakimov	
Sovet davri maktab o'qituvchilarining kundalik hayoti	316
G'.Israilov	
Sakkokiad adabiy merosi o'rganilishi manbalari xususida.....	321
S.Xoliqov	
Milliy xavfsizlikni ta'minlash jarayonida O'zbekiston respublikasi Oliy Majlisi senati ishtirokining tashkiliy va nazariy-huquqiy asoslari	325
O.Axmadjanova	
Badiiy asarda psixologik (ruhiy) tahlil printsiplari va usullari.....	330
D.Buzrukova	
"Muhabbat" konseptining lingvomadaniy o'ziga xosligi	334
K.Topvoldiyev	
Lermontov M.Yu. asarlarida XIX asr kavkazi.....	338
S.Abduraxmonov, SH.Ibragimov	
Ta'lim tizimida baholashning asosiy mezonlari va uning ahamiyati	345
A.U.Choriyev, G.O Temirova,	
Yetuk kimyogar, kamtarin olim	349

**MILLIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH JARAYONIDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY MAJLISI SENATI ISHTIROKINING TASHKILIY VA NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI**

**ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ И ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ УЧАСТИЯ СЕНАТА
ОЛИЙ МАЖЛИСА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В ПРОЦЕССЕ ОБЕСПЕЧЕНИЯ
НАЦИОНАЛЬНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ**

**ORGANIZATIONAL AND THEORETICAL-LEGAL BASES OF THE PARTICIPATION OF
THE SENATE OF THE OLIY MAJLIS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN IN THE PROCESS
OF ENSURING NATIONAL SECURITY**

Sarvar Xoliqov Mingishovich¹

¹Sarvar Xoliqov Mingishovich

– mustaqil izlanuvchi.

Annotatsiya

Maqolada senat qo'mitalari vazifasi, senat qarorlari va boshqa normativ hujjatlari loyihibarini tayyorlash mexanizmi haqida tushuncha berilgan. Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi Qonunchilik palatasidan kelib tushgan mudofaa va xavfsizlik sohasiga oid qonunlarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish va tegishli takliflarni Senat Kengashiga kiritishni amalga oshiruvchi Senatning asosiy tuzilmasi ekanligi ta'kidlangan. Qo'mita faoliyatiga doir masalalar yuzasidan davlat hokimiyati va boshqaruvi, xo'jalik boshqaruvi organlari, boshqa tashkilotlar hamda muassasalar, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolar bilan hamkorlik usullari tahlil qilingan.

Аннотация

В статье дается понимание роли комитетов сената, механизма подготовки проектов решений сената и других нормативных документов. Отмечалось, что комитет по вопросам обороны и безопасности является основной структурой Сената, осуществляющей предварительное рассмотрение законов, относящихся к сфере обороны и безопасности, поступивших из Законодательной палаты, и внесение соответствующих предложений в Совет Сената. . В связи с вопросами деятельности комитета проанализированы методы взаимодействия с органами государственной власти и управления, органами хозяйственного управления, иными организациями и учреждениями, негосударственными некоммерческими организациями, средствами массовой информации и гражданами.

Abstract

The article provides an understanding of the role of senate committees, the mechanism of preparation of drafts of senate decisions and other regulatory documents. It was noted that the committee on defense and security issues is the main structure of the Senate, which carries out the preliminary review of laws related to the field of defense and security received from the Legislative Chamber and the submission of relevant proposals to the Senate Council. Methods of cooperation with state power and management, economic management bodies, other organizations and institutions, non-governmental non-profit organizations, mass media and citizens were analyzed in connection with issues related to the activities of the committee.

Kalit so'zlar: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati, Senat qo'mitasi, Qonunchilik palatasi, Milliy xavfsizlik.

Ключевые слова: Сенат Олий Мажлиса Республики Узбекистан, Комитет Сената, Законодательная палата, Национальная безопасность.

Key words: Senate of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, Senate Committee, Legislative Chamber, National Security.

KIRISH

Senat qo'mitalari – yuqori palataning doimiy ishchi organlari bo'lib, parlamentning asosiy funktsiyalarini, ayniqsa qonunchilik, vakillik va nazorat funktsiyalarini bajarishda alohida rol o'yinaydi. Qonunchilik funktsiyasi shundan iboratki, qo'mitalarning har biri Qonunchilik palatasidan kelib tushgan qonunlarni bevosita ko'rib chiqish, olingan huquqiy hujjatlar yuzasidan xulosalar berish, shuningdek Senat qarorlari va boshqa normativ hujjatlari loyihibarini ishlab chiqish bilan bevosita shug'ullanadi. Senat qo'mitalarining faoliyatida muhim vakillik funktsiyalarini, shuningdek nazorat funktsiyalarini yoki parlament nazorati deb yuritiladigan funktsiyalarini amalga oshirish alohida o'r'in tutadi. Mazkur holat "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining

Reglamenti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni hamda parlament yuqori palatasining 2005 yil 6 maydagi 29–I-son Qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglamenti bilan yanada mufassalroq tarzda tartibga solindi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Senat a‘zolari to‘laqonli faoliyat yuritishini ta‘minlash maqsadida “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a‘zosining maqomi to‘g‘risida”gi[1], “Xalq deputatlari mahalliy Kengashi deputatini, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatini va Senati a‘zosini chaqirib olish to‘g‘risida”gi[2] qonunlar qabul qilindi. Ana shu qonunlarda senatorlar o‘z vazifalarini to‘liq hajmda ado etishlari uchun ularning asosiy huquq hamda vakolatlari belgilab berildi.

Palata qo‘mitalari qo‘mita raisi, uning o‘rinbosari va qo‘mita a‘zolaridan tarkib topadi. Har bir qo‘mita 10 nafar va undan ortiq senatordan iborat bo‘ladi. Qo‘mitalar Senatning butun vakolat muddatiga, ya‘ni besh yilga saylanadi. Yuqori palataning qo‘mitalari shu palataning o‘ziga hisobdordir.

Qo‘mitalarning majlislari palataning yalpi majlislari oralig‘idagi davrda o‘tkaziladi. Majlislar, agar ularda qo‘mita a‘zolarining kamida yarmi hozir bo‘lsa, vakolatli hisoblanadi. Senat qo‘mitalarining majlislari odatda ochiq o‘tkaziladi, lekin ayrim hollarda yopiq majlis o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qilinishi mumkin. Qo‘mitalarning majlislarida davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarning, ilmiy muassasalarning vakillari, mutaxassislar va olimlar, ommaviy axborot vositalarining vakillari ishtirok etishi mumkin.

Hozirda Senat qo‘mitalarida qo‘mita raislari (*bir vaqtning o‘zida doimiy asosda ishlamoqda senator*), shuningdek, qo‘mita a‘zosi bo‘lmish bittadan senator doimiy asosda ishlamoqda.

Ko‘rsatib o‘tish lozimki, qo‘mitaning barcha a‘zolari teng huquqli bo‘lib, Senat qo‘mitalari tomonidan ko‘rib chiqilayotgan masalalar yuzasidan qaror qabul qilish taomili ana shu printsipdan kelib chiqib, qo‘mita a‘zolarining ko‘pchiligi ovoz berishini nazarda tutadi. Mabodo qo‘mitalardan birining majlisida boshqa qo‘mitalarning a‘zosi bo‘lgan senatorlar ishtirok etayotgan bo‘lsa, ular mazkur qo‘mita ishida “maslahat ovozi” huquqiga ega bo‘ladilar. Senat qo‘mitasi qabul qilgan qaror yozma ravishda rasmiylashtiriladi hamda tegishli qo‘mita raisi tomonidan yoki uning yo‘qligida qo‘mita raisi o‘rinbosari tomonidan imzolanadi. Davlat organlariga yuborilayotgan qarorlar ular tomonidan ko‘rib chiqilishi shart. Ko‘rib chiqish natijalari va ko‘rilgan choralar haqida Senat qo‘mitasiga bir oydan kechiktirmay xabar qilinadi.

Qayd etish lozimki, Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi Qonunchilik palatasidan kelib tushgan mudofaa va xavfsizlik sohasiga oid qonunlarni dastlabki tarzda ko‘rib chiqish va tegishli takliflarni Senat Kengashiga kiritishni amalga oshiruvchi Senatning asosiy tuzilmasidir.

Mazkur qo‘mitaning asosiy vazifasi sifatida qo‘yidagilarni qayd etish mumkin:

- mudofaa va xavfsizlik sohasiga oid qonun hujjatlari, davlat dasturlarining ijrosi, mamlakatning ichki hamda tashqi xavfsizligini ta‘minlash sohasida, harbiy qurilish va mudofaa sanoati majmuasi, Qurolli Kuchlarda amalga oshirilayotgan islohotlarning borishi ustidan tizimli parlament nazoratini amalga oshirish;

- mudofaa va xavfsizlik sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini, ularning O‘zbekiston Respublikasi mudofaa doktrinasi hamda milliy manfaatlari, davlat harbiy va mudofaa qurilishi asoslariiga muvofiqligini o‘rganish hamda ular bo‘yicha xulosalar va takliflar tayyorlashda ishtirok etish;

- mudofaa va xavfsizlik sohasiga doir mavjud qonunchilik bazasini tahlil qilish, O‘zbekiston Respublikasida harbiy qurilish rejali va istiqbollarini hisobga olgan holda qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

- harbiy xizmatchilar, harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar, yadro poligonlarida va boshqa yadroviy-radiatsiya ob‘ektlarida harbiy xizmatni o‘tagan pensiya yoshidagi shaxslarni, shuningdek harbiy xizmatni o‘tash chog‘ida halok bo‘lgan shaxslarning oila a‘zolarini ijtimoiy muhofaza qilishga oid qonun hujjatlarini takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish;

- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari tomonidan haqiqiy harbiy xizmatga chaqirilayotgan fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga rioya etilishi ta‘minlanishi yuzasidan ta’sirchan qarorlar qabul qilish;

ILMIY AXBOROT

- Ikkinci jahon urushi qatnashchilari va baynalmilalchi jangchilar turmush sharoitini yanada yaxshilashga oid masalalarni qo'mita majlislarida muhokama qilib borish, halq deputatlari maxalliy Kengashlarida muhokama etilishiga ko'maklashish;

- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining fuqarolarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan faoliyatini amalga oshirishga ko'maklashish.

SHu bilan birgalikda, yuqorida qayd etilgan vazifalarni bajarish uchun qonun hujjatlari va qo'mita nizomiga muvofiq bir qancha Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi funktsiyalarni amalga oshiradi.

Xususan, Qonunchilik palatasidan kelib tushgan mudofaa va xavfsizlik sohasiga oid qonunlarni davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari, ilmiy muassasalar vakillari, mutaxassislar va olimlardan iborat tarkibda ishchi guruh tuzgan holda dastlabki tarzda ko'rib chiqadi (*qonunlarda umumdavlat va hududiy manfaatlar mutanosibligi ta'minlanganiga alohida e'tibor bergen holda*), ular bo'yicha xulosa tayyorlaydi va Senatning yalpi majlisi kun tartibiga kiritish bilan bog'liq takliflarni Senat Kengashiga kiritadi. SHuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining eng muhim masalalari yuzasidan har yilgi ma'rurasini dastlabki tarzda ko'rib chiqadi, zarur hollarda Senatning yalpi majlisida muhokama qilinishi shart bo'lgan taklif va mulohazalarni ishlab chiqadi, Senatning tegishli qarorlari loyihibalarini tayyorlaydi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ayrim dolzarb masalalari yuzasidan hisobotini dastlabki tarzda ko'rib chiqadi, zarur hollarda taklif va mulohazalarni tayyorlaydi, Senatning tegishli qarorlari loyihibalarini ishlab chiqadi. O'zbekiston Respublikasi tarkibiga yangi davlat tuzilmalarini qabul qilish va ularning O'zbekiston Respublikasi tarkibidan chiqishi haqidagi qarorlarni tasdiqlash to'g'risidagi Senat qarorlari loyihibalarini ishlab chiqadi, O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalarini qonun yo'li bilan tartibga solish, chegaralarini o'zgartirish to'g'risidagi, tumanlar, shaharlar, viloyatlarni tuzish, tugatish, ularning nomini hamda chegaralarini o'zgartirish to'g'risidagi Senat qarorlari loyihibalarini tayyorlaydi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mudofaa va xavfsizlik sohasidagi vazirliklar, davlat qo'mitalari va boshqa davlat boshqaruvi organlarini tuzish hamda tugatish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash haqidagi Senat qarorlari loyihibalarini ishlab chiqadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnomaga majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug'ilganda urush holati e'lon qilish to'g'risidagi farmonini tasdiqlash to'g'risidagi Senat qarorlari loyihibalarini tayyorlaydi.

Alohiba ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati raisini tayinlash va uni lavozimidan ozod etish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash haqidagi Senat qarorlari loyihasini ishlab chiqadi hamda qo'mitagaga Davlat xavfsizlik xizmatining o'z faoliyatining asosiy yo'naliishlari yuzasidan taqdim qilgan axborotlarini ko'rib chiqadi va tahlil qiladi.

Shuningdek, qo'mita mudofaa va xavfsizlik sohasiga oid O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Senat, uning Kengashi qarorlari, davlat dasturlarining davlat hokimiyati va boshqaruvi, xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan ijro etilishining holatini va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganadi hamda mazkur sohasidagi davlat hokimiyati va boshqaruvi, xo'jalik boshqaruvi organlari rahbarlarining qonunlarga rioya etilayotganligi, Senat, uning Kengashi qarorlari va qo'mita qarorlarini bajarayotganligi to'g'risidagi axborotini eshitadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

2015-2019-yillarda Senat qo'mitalari tomonidan qonun hujjatlarining ijrosi holatini va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish hamda Davlat dasturlarining ijrosi ustidan samarali parlament nazoratini amalga oshirish maqsadida 260 dan ziyod nazorat-tahlil tadbiri o'tkazildi.

E'tiborga molikki, qo'mita mudofaa va xavfsizlik sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar loyihibalarini, ularning O'zbekiston Respublikasi mudofaa doktrinasi hamda milliy manfaatlariga, davlat harbiy va mudofaa qurilishi asoslari muvofiqligini o'rganish hamda ular bo'yicha xulosalar va takliflar tayyorlashda ishtirok etadi, Shuningdek, mudofaa va xavfsizlik sohasiga oid qonun hujjatlarini yanada takomillashtirishga doir takliflar tayyorlash va kiritish yuzasidan muntazam

tahlillar olib boradi, bu boradagi xalqaro tajribani o'rganadi va xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan normalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish bo'yicha asoslantirilgan takliflar ishlab chiqadi.

Bundan tashqari, qo'mita Senatning yalpi majlislarida ma'qullangan qonunlarning mazmun-mohiyatini keng aholi e'tiboriga yetkazish maqsadida joylarda xalq deputatlari mahalliy Kengashlari bilan hamkorlikda targ'ibot tadbirlarini amalga oshiradi. Qabul qilingan qonunlarning mazmun-mohiyatini keng ommaga yetkazish, qonun hujjatlarini takomillashtirish va boshqa dolzARB masalalar bo'yicha tadbirlar (*konferentsiya, davra suhbati, seminarlar*) o'tkazadi. Qo'mita faoliyatiga doir masalalar yuzasidan davlat hokimiyati va boshqaruvi, xo'jalik boshqaruvi organlari, boshqa tashkilotlar hamda muassasalar, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolar bilan hamkorlik qiladi.

Qayd etish lozimki, qo'mitaning asosiy vazifasi mudofaa va xavfsizlik yo'nalishida, mazkur sohadagi davlat dasturlarining ijrosi, mamlakatning ichki hamda tashqi xavfsizligini ta'minlash sohasida, harbiy qurilish va mudofaa sanoati majmuasi to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari loyihalarini qo'rib chiqish ekanligini hisobga olib qo'mita a'zoligiga asosan mudofaa va xavfsizlik faoliyat ko'rsatib, muayyan tajribaga ega bo'lgan shaxslardan qabul qilinishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shuningdek, qo'mitada faqat 3 nafargina senatorning doimiy asosda ishlashi, shundan ham ulardan 1 nafari Senatning maxalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyatini kuchaytirishga ko'maklashuvchi komissiya raisi ekanligi, qo'mita a'zolari o'z vazifa va funktsiyalarini to'liq va samarali ado etishlariga salbiy ta'sir etmoqda. Bu degani, bir senatorning turli sohalarga javlb qilinishi, uni o'zining asosiy vazifasi bo'lgan xavfsizlik va mudofaa masalalariga alohida e'tibor qaratishlariga kam vaqt qolishini anglatadi, bu o'z navbatida ish samaradorligiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababli, jahon parlament amaliyotida "senatorlarning yordamchilari instituti"ning roli juda muhimligini hisobga olib, ushbu masalani milliy qonunchiligidan joriy etish juda yaxshi tajriba bo'lib hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida, senatorlarni qo'llab-quvvatlashni to'laligicha ta'minlaydi va umuman parlament samarali faoliyat yuritishi uchun zarur sharoitlar yaratadi. Bu esa o'z navbatida, Senat qo'mitalari faoliyati samaradorligiga ijobji ta'sir etadi.

E'tiborli jihat shuki, yuqorida sanab o'tilgan normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq, Senatning quyidagi asosiy funktsiyalari mavjud:

- vakillik funktsiyasi;
- qonunchilik funktsiyasi;
- nazorat funktsiyasi.

Xususan, Senatni shakllantirish yuqorida ko'rsatib o'tilgan qonun hujjatlari ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a'zolarini saylash tartibi to'g'risida Nizom"[3] qoidalari bo'yicha amalga oshiriladi. Yuridik nazariya va amaliyot bo'yicha har bir muhim ijtimoiy munosabatlar qonun hujjatlari bilan tartibga solinishi belgilab qo'yilgan.

Senat mazkur komissiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- senatorlar tomonidan odob normalariga riox va etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;
- senatorlarning siyosiy va huquqiy madaniyatini oshirishga yordam beradigan tushuntirish tadbirlarini amalga oshirish;
- Senat Kengashiga kiritiladigan senatorlarning odobi to'g'risidagi masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish va tayyorlash.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining Qarori[4] bilan Senatda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyatini kuchaytirishga ko'maklashuvchi komissiyasi tuzildi.

Birinchi chaqiriq ikki palatali parlament ishlagan davrda qaror topgan tartibga muvofiq Senat a'zolarining taxminan 80–84 foizi o'zining professional faoliyatini mintaqalarda amalga oshirdi[5].

Shu bilan birgalikda, parlament funktsiyalari haqida to'xtalib, ayrim olimlar u yoki bu funktsiyani asosiy va ustuvor sifatida ko'rsatishlarini qayd etish lozim. Jumladan, B.Strashun esa qonunchilik funktsiyasini asosiy deb ta'kidlaydi[6]. Ayni bir vaqtida, AQSHlik olim N.J.Ornsteyn vakillikni birinchi o'ringa qo'yadi[7]. Mazkur soha bo'yicha milliy mutaxassis R.R.Hakimovning

ILMIY AXBOROT

fikricha, parlamentning u yoki bu funktsiyasini boshqasiga nisbatan ustuvor deyish unchalik ham to'g'ri emas. CHunki, har bir alohida olingan funktsiya o'zining mazmuni va ahamiyatiga egadir. Parlament to'laqonli va tom ma'nodagi davlat hokimiyatining mustaqil tarmog'i bo'lib hisoblanishi uchun unda vakillik, qonunchilik va nazorat funktsiyalari, albatta, bo'lishi darkor[8].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, parlament a'zolariga maxfiy ma'lumotlardan foydalanishni ta'minlashning ikkita asosiy usuli mavjud. Ba'zi mamlakatlarda parlament mandati maxfiy ma'lumotlarga hech qanday tekshiruv�iz kirish huquqini beradi deb taxmin qilinadi (masalan, AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Frantsiya, Polsha, CHexiya, Estoniya, Bolgariya, Ruminiya, Ukraina va Turkiya). To'g'ri, ba'zi hollarda kadentsiya boshlanishida yoki mudofaa, xavfsizlik yoki razvedka qo'mitasiga deputat saylanganidan keyin davlat sirlarini oshkor etmaslik to'g'risida qasamyod qilish ko'zda tutilgan[9].

Boshqa mamlakatlarda qo'mita a'zolari maxfiy ma'lumotlarga faqat xavfsizlik xizmatidan ruxsat olgandan keyingina kirishlari mumkin (Norvegiya, Serbiya, Makedoniya va Latviya). Qabul qilish deputatlarga davlat organlari tomonidan tekshirilgandan so'ng beriladi. Bunday rasmiy tartiblarning muvaffaqiyatli yakunlanishi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat o'tasida ishonchni mustahkamlaydi, muloqotni yaxshilaydi va deputatlarga mansabdar shaxslar bilan muloqot qilish imkonini beradi[10].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1."O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatosi deputatining va Senati a'zosining maqomi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015 y., 52сон, 645-modda.
- 2."Xalq deputatlari mahalliy Kengashi deputatini, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatosi deputatini va Senati a'zosini chaqirib olish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008 y., 52сон, 510-modda.
- 3.O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a'zolarini saylash tartibi to'g'risida Nizom. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi axborotnomasi 2004 № 2 (8). 71 b.
- 4."O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyatini kuchaytirishga ko'maklashuvchi komissiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining qarori. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2013 y., 3сон, 88-modda.
- 5.O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati 2010–2014 yillarda. Tuzuvchi: Rasulov Q.T. Tahrir hay'ati a'zolari: Sobirov I.M. va boshqalar. T.: "MEGA", 2011. 54 b.
- 6.Konstitusjonnoe (gosudarstvennoe pravo) zarubejnyx stran: v 4 t. - Toma 1-2 // Otv. red. prof. B.A.Strashun. - M., 1999. – 447 s.
- 7.Norman J. Ornstein. The role of the Legislature in Western Democracies // <http://usinfo.state.gov/products/pubs/archive/freedom/freedom3.htm>
8. Hakimov R.R. Davlat hokimiyati tizimida parlament: nazariya va amaliyot muammolari. Yurid. fanlar nomz..... diss. – Toshkent, 2009. – 32 b.
- 9.Fuyor T. Polnomochiya parlamenta i upravlenie sektorom bezopasnosti //Seriya parlamentarnyx programm. – 2014. – T. 1. – S. 12-13.